


## II. SANOAT




Viloyat sanoat korxonalarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlarining jadallashishi natijasida 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida 25 812,4 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta'minlanib, ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 2023 yilning tegishli davriga nisbatan 107,2 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida ko'proq qayta ishlash sanoatining ulushi 97,3 foizni tashkil etdi (2023 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 107,3 %). Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ulushi 1,5 foizni (ishlab chiqarish indeksi 103,9 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish ulushi 0,5 foizni (ishlab chiqarish indeksi 96,7 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 0,7 foizni (ishlab chiqarish indeksi 112,3 %) tashkil qildi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi**  
(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini  
ishlab chiqarish**  
(2024 yil yanvar-dekabr)


<i>Ko'rsatkichlarnomi</i>	<i>Mlrd so'm</i>	<i>2023 yil yanvar-dekabriga nisbatan fizik hajm indeksi</i>
<b>Jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi</b>	<b>25 812,4</b>	<b>107,2</b>
<b>Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>195,2</b>	<b>112,3</b>
<i>Shundan:</i>		
tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat	195,2	112,3
<b>Qayta ishlash sanoati</b>	<b>25 111,4</b>	<b>107,3</b>
<i>shundan:</i>		
oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	2 605,6	124,6
ichimliklar ishlab chiqarish	43,0	20,5
to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	3 979,8	115,6
kiyim ishlab chiqarish	603,4	82,8
teri va unga tegishli mahsulotlarni ishlab chiqarish	20,0	754,7
yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	54,7	94,6
qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	162,7	144,0
yozilgan materiallarni nashr etish va aks ettirish	8,4	214,2
kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	458,5	57,6
Farmasevtika mahsulotlarini va preparatlarini ishlab chiqarish	0,4	2,5 m.
rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	355,6	72,1

*davomi*

<i>Ko'rsatkichlarnomi</i>	<i>Mlrd so'm</i>	<i>2023 yil yanvar-dekabriga nisbatan fizik hajm indeksi</i>
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	-	-
boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish	2 728,2	92,8
metallurgiya sanoati	50,1	17,9
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	217,4	114,4
elektr uskunalarni ishlab chiqarish	921,1	96,1
kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	53,0	132,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalarni ishlab chiqarish	7,5	24,8
Mebel ishlab chiqarish	321,0	99,7
boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	145,7	133,1
mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	55,7	352,7
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish	12 319,6	124,4
<b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>386,5</b>	<b>103,9</b>
<b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>119,3</b>	<b>96,7</b>


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarida eng yuqori ulushi qayta ishlash sanoati korxonalarini (97,3 foiz) hissasiga to'g'ri keldi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida sanoat korxonlari tomonidan 25 812,4 mlrd so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 107,2 foizni tashkil etdi.



**Ishlab chiqaradigan sanoat**  
(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)

2022-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida



2024- yilning yanvar-dekabr oylarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 25 111,4 mlrd so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,3 foizni tashkil etdi.



**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati**  
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)





Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarining hissasi  
(foiz hisobida)




Metallurgiya sanoati

0,2 %

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,8 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 100,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,2 % ni fizik hajm indeksi esa 17,9 % ni ishlab chiqarish hajmi 50,1 mlrd so'mni tashkil etdi.



Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

10,6 %




Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 12,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 128,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-dekabr oylar yakunlariga ko'ra, ulushi 10,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 7,2 % ga kamayib ishlab chiqarish hajmi 2 728,2 mlrd so'mni tashkil etdi.



**Kimyo mahsulotlari  
ishlab chiqarish**

1,8 %



**Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish**

2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 122,1 % ga o'sgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 % ni, fizik hajm indeksi 42,4 % ga kamayib, ishlab chiqarish hajmi 458,5 mlrd so'mni tashkil etdi..




**To'qimachilik  
mahsulotlari ishlab  
chiqarish**

15,4 %

**To'qimachilik mahsulotlari ishlab  
chiqarish**

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 94,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 115,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 3 979,8 mlrd so'mni tashkil etdi.





**Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish**

10,1 %



**Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish**

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi 6,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 96,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarda ulushi 10,1 % ni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 124,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2 605,6 mlrd so'mni tashkil etdi.




**Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish**

1,4 %

**Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish**

2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 95,9 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi 27,9 % ga kamayib, ishlab chiqarish hajmi 355,6 mlrd so'mni tashkil etdi.





**Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati**

0,2%



**Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati**

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 125,0 % ni tashkil etgan. 2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 20,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 43,0 mlrd so'mni tashkil etdi.




**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish**

47,7%

**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish**

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida avtotransport vositalari, treylerlar, yarim tirkamalar ishlab chiqarishning ulushi 46,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 115,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, ulushi 47,7 % ni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 124,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 12 319,7 mlrd so'mni tashkil etdi.






**Elektr jihozlari ishlab chiqarish**

3,6 %

**Elektr jihozlari ishlab chiqarish**


2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 135,0 % ni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-dekabr ylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,6 % ni, fizik hajm indeksi 96,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 921,1 mlrd so'mni tashkil etdi.



**Hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, foizda**

Jizzax viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush (Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmining yuqori foiz ulushi) G'allaorol tumani (42,7 %) va Jizzax shahri (22,1 %) hissasiga to'g'ri keldi.



\*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti  
turlarini ishlab chiqarish  
(yirik korxonalar bo'yicha)

Mahsulotlarnomi	O'lchov birligi	2024 yil yanvar-dekabr	2023 yilning yanvar-dekabriga nisbatan foiz
<b>Ishlab chiqaradigan sanoat</b>			
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi	t	26 393,7	104,0
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 1 navli	t	9 936,1	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 2 navli	t	15 687,3	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 3 navli	t	486,8	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 4 navli	t	125,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 5 navli	t	155,0	-
Paxta chigiti	t	40 808,3	107,1
Momiq	t	2 618,7	116,7
Tozalangan o'simlik yog'i	t	18 145,1	3,5 m.
Chigitdan olingan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar	t	126 419,9	98,0
Soapstoklar (neytrallash jarayoni mahsuloti)	t	1 667,0	99,8
Yangi so'yilgan sovutilgan go'sht	t	632,1	4,8 m.
Yumshoq bug'doy va spel'ta uni	t	11 944,0	64,0
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari)	t	3 962,0	4,4
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar	t	1 897,0	77,5
Portland sement	t	2 088 137,8	85,7
«KIA» avtomobili	dona	19 328	128,5
«CHERY» avtomobili	dona	6 301	64,1
«HAVAL» avtomobili	dona	2 473	18 m.
"BYD" rusumli yengil avtomobillar, ichki yonuv dvigateli ham boshqara oladigan elektr dvigateli	dona	4 004	-
Chakana savdo uchun qadoqlanmagan paxtadan yigirilgan bir qavatli ip	t	34 675,9	104,7



Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi G'allaorol tumani (42,7 %), shuningdek Jizzax shahri (22,1 %) hissalariga to'g'ri keldi.



\*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.



### Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga G'allaorol tumani (58 381,9 ming so'm), Jizzax shahri (28 838,9 ming so'm) hamda Zafarobod (20 127,4 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichi (16 954,2 ming so'm) dan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

#### Jizzax viloyati

7 639,4 ming.so'm

2022-yil yanvar-dekabr




12 739,6 ming.so'm


2023-yil yanvar-dekabr

16 954,2 ming.so'm


2024-yil yanvar-dekabr

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'sish sur'ati, %





Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi




\*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 70 14,4 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, ularning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 27,2 % ni tashkil etdi.




**Hududlar bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da**



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 7014,4 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, hududlar kesimida ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi Arnasoy (100,0 %), va Yangiobod (100,0 %) va Sharof Rashidov (99,9 %) tumanlarida yuqori ekanligini ko'rsatdi.



Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi Do'stlik (15,1 %), Zafarobod (7,2 %) hamda G'allaorol (1,4 %) tumanlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.






**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilish**

Viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o‘shish sur‘atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 83 ta loyiha bo‘yicha 13 773,6 mlrd so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 38,7 mln AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga 2 073 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.





Sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalari, birlikda  
2025- yil 1-yanvar holatiga



Hududlar miqyosida olib qaralganida, sanoat tarmog'ida yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahri (199 ta), Zomin (136 ta), Sharof Rashidov (114 ta) va G'allaorol (111 ta) tumanlarida kuzatildi.

Shuningdek, Baxmal (88 ta), Zarbdor (60 ta), Forish (46 ta), Do'stlik (45 ta), Paxtakor (36 ta), Arnasoy (28 ta), Mirzacho'l (27 ta), Zafarobod (26 ta) va Yangiobod (14 ta) tumanlarida ham sanoat tarmog'idagi yangi tashkil etilgan korxonalar faoliyat yuritib kelmoqda.